



BUXORO PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR INSTITUTI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 1, 2024

№ 1, 2024

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN



<http://buxpxti.uz>

Hamitova Sunbula Bahodir qizi

Buxoro davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti

Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

E-mail: sunbulakhamitova@gmail.com

MUSTAQILLIK YILLARIDA YOSH TOMOSHABINLAR TEATRIDA REJISSURA VA IJROCHILIK MASALALARI

Annotatsiya. Zamonaviy yoshlar dunyoqarashini va ma'naviyatini shakllantirishda teatr san'atining o'rni beqiyos. Teatrda, spektakllar namoyishi orqali tomoshabinlarga nimanidir aytadi. Teatr tomoshalari orqali inson o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, yoshlar imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Umuman olganda teatr san'ati, bugungi kun kishisini o'z hayotida sog'lom muhit tashkil etishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Katil so'zlar: Teatr, spektakl, yoshlar ma'naviyati, tarbiya, tomosha, jamiyat, ijodkor, pyesa, syujet, kompozitsiya

ВОПРОСЫ РЕЖИССУРЫ И ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ТЕАТРЕ ЮНОГО ЗРИТЕЛЯ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. Неоценима роль театрального искусства в формировании мировоззрения и духовности современной молодежи. В театре он что-то говорит публике через постановку пьес. Через театрализованные представления человек подготавливает почву для небольшой коррекции, перевоспитания, реализации потенциала молодежи, ведет к совершенствованию. В целом театральное искусство – один из важнейших факторов создания здоровой среды в современной жизни.

Ключевые слова: Театр, спектакль, духовность молодежи, воспитание, спектакль, общество, творец, пьеса, сюжет, композиция, режиссер.

ISSUES OF DIRECTION AND PERFORMANCE IN THE THEATER OF YOUNG AUDIENCES DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation. The role of theatrical art in shaping the worldview and spirituality of modern youth is invaluable. The theatre says something to the audience through his performances in the theater. Through theatrical performances, a person prepares the ground for self-correction, re-education, realization of the potential of young people, leads to perfection. In general, theatrical art is one of the most important factors in creating a healthy environment in one's life today.

Key words: Theater, performance, dukhovnost molodeji, vospitanie, performance, obshchestvo, tvorets, pesa, plot, composition, director.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasida ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish orqali madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash dolzarb masalasi sifatida qayd etilgani madaniyat va san'atga berilayotgan e'tibor va madaniyat va san'at muassasalari, teatr va san'at saroylari taraqqiyotining huquqiy asosidir.¹ [1]

Teatrda dunyoga keladigan spektakl bevosita juda ko'p ijodkorlarning bir maqsaddagi izlanishlari mahsuli. Spektakl, uni yaratadigan ijodkorlarning hamkorligi, individual intilishlari, bahslari va qarashlarining bahamjihatligi va kerakli bir nuqtaga yig'ilib, bir-birlariga mos kelishi natijasida yuzaga keladigan hodisa. Bu jarayonda rejissor, ijodkorlarning fikrlarini, his-tuyg'ularini kerakli tomonga yo'naltiruvchi yagona birlashtiruvchi kuch hisoblanadi.

Teatr san'atining rivojlanish tarixiga nazar tashlaganda, ma'lum bo'ladiki, rejissorlik kasbi ancha keyin shakllangan. Aktyorlarning tomoshaga tayyorgarlik ko'rishlarida oddiy nazoratchi sifatida

sahna ortida o'tirgan bu kishi hozirga kelib, teatrning haqiqiy sehgari va shu bilan birga mutafakkiri darajasiga ko'tarildi. Rejissor teatrning tashkilotchisi, uning g'oyaviy, metodik, estetik yo'nalishining, yagona ijodiy istiqbolini belgilovchi lideri va tarbiyachisi. Uning qo'lida teatrning murakkab mexanizmining kaliti bor va u butun jamoaning ijodiy istaklarini birlashtirib, ularni amalga oshiruvchi yo'lboshchi.

Rejissor (lot. — boshqaraman) — spektakl; film, tele va radio ko'rsatuv va eshittirishlarini, estrada va sirk dasturlarini sahnalashtiruvchi shaxs. Rejissor so'zining mohiyatini tahlil qilishdayoq aslida bu sohadagilar boshqaruvchi ekanligini payqab olish mumkin. O'z ijodiy o'ylari, maqsadi asosida tomoshaning barcha ishtirokchilari — aktyor, rassom, kompozitor, kinoda operator ishini birlashtirib, yangi tomoshaviy voqelik yaratadi.² [2] Demak, rejissor – ijodiy jarayonning sarkori, yaratuvchisi, avval boshida bu ijod jarayoni g'oyasini begilovchi, uni yagona to'g'ri yo'lga boshlab boruvchi, atrofidagi boshqa hamma ijodkorlarni o'z qarashlariga, fikriga, g'oyasiga ishontira oladigan, maftun qila oladigan ijodkor. Rejissor atrofidagilarni ilhomlantiradi va ulardan ilhomlanadi. U spektakl yaratish jarayonida, nafaqat, jamoani ijodiy boshqaradi, balki sahna san'atining umumiy vazifalari va yagona ijodiy uslubi (metodi) asosida jamoani tarbiyalaydi.

Rejissorlik san'ati – harmonik bir butun va muayyan yahlitlikka ega bo'lgan tomosha, ko'rinish yaratish san'ati (teatr, kino, telefilm, sirk va estradada). Rejissor sahna asari yoki kinofilm yaratish jarayonida ijodiy xodimlar — aktyor, yakkaxon, rassom, kompozitorga (kino va televideniya operatorlarga ham) va yordamchi xodimlarga rahbarlik qiladi. Haqiqatdan ham rejissorlik sohasi keng qamrovli soha, juda ko'plab san'at turlarini rejissorsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ularning har biri o'z sohasining xususiyatlaridan kelib chiqib o'z faoliyatlarini tashkil etadilar.

Masalan, yosh tomoshabinlar teatri rejissorligi sohasining vazifalari teatrdagi quyidagi asosiy bosqichlarni qamrab oladi:

- pyesa tanlash;
- tanlangan pyesa g'oyasi, janri va badiiy xususiyatlari, tasvirlanayotgan davr, muallifning ijodiy uslubini o'rganish;
- asar talqini uchun sahna vositalarini izlash;
- har bir personaj xususiyati, xarakteri va umuman, spektakl talabiga monand aktyorlar tanlash;
- aktyorlar uchun tanlangan pyesa yuzasidan tahliliy ko'rsatmalar berish;
- sahnaviy ritm va sur'atni belgilash;
- mizansahnalar yaratish;
- rassom va kompozitor bilan hamkorlikda asarni badiiy bezash prinsiplarini ishlab chiqish;
- spektakl tayyor bo'lgunga qadar repetitsiya jarayonlarini boshqarish va hokazo.

Rejissorning vazifalaridan kelib chiqqan holda e'tirof etish mumkinki, quyidagi uch muhim faoliyat rejissorning asosidir:

- boshqaruvchilik;
- tashkilotchilik;
- ijodkorlik.

Rejissor uchun boshqaruvchi va tashkilotchi sifatida faoliyat yuritish ma'lum spektakl ijodiy jamoasini nazorat qilish va spektakl tashkiliy masalalariga mualliflik qilish bilan izohlanadi. Rejissorning ijodkorligi esa uning ma'lum asarga qanday talqinda yondashishi bilan o'lchanadi. Aynan spektakldagi rejissor talqini orqali tomoshaning ahamiyati, qiymati va tomoshaviyligi oshadi.

Talqin (arab. — tushuntirish, nasihat) — 1) o'ziga xos (3/8+3/4 yoki 9/8 takt o'lchovidagi) doira usuli (lang yoki oqsoq deb ham yuritiladi); 2) shu usul asosida yaratilgan kuy, ashula va maqom yo'llari Talqin tushunchasi ham san'atning qator turlariga xos faoliyatdir. Bu bevosita ijodiy kategoriya hisoblansa-da, ma'lum nazariy xususiyatlardan holi emas.³ [3]

Bu ta'rif musiqa san'atiga xos talqin ma'nosida kelmoqda. Talqin tushunchasi mohiyatan ma'lum san'at turida ijodkorning o'z dunyoqarashi, fikrlashi va uslubi xos yondashuvlari majmuidir. Demak, ma'lum spektakl talqini aynan san'at vositalaridan qay usulda, qay shaklda foydalanilganlik darajasi bilan nisbatlanadi. Ayniqsa, bolalar teatrida rejissor talqini juda muhim ahamiyatga ega. Boisi, yozilgan pyesa, ertak, adabiy asos o'z holida to'laligicha injiq va talabchan yosh tomoshabinlar uchun manzur bo'lmasligi, ularning diqqatini uzoq vaqt ushlab turmasligi mumkin. Shu asosda rejissor spektaklni sahnalashtirish jarayonida har bir komponent uchun ijodiy talqin nuqtayi nazaridan yondashishi kerak bo'ladi. Buning uchun rejissor badiiy fikrlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Sahna imkoniyatlarini, unsurlarini yaxshi bilish rejissordagi badiiy fikrlash qobiliyatining nishonasi. Badiiy fikrlash intellektual faoliyatning shunday turiki, u orqali san'at asari

yaratiladi va idrok qilinadi. Bu insonning mutlaqo o'zgacha fikrlash qobiliyati hisoblanib, kechinma jarayonining xarakteri bilan, piravard maqsadi, sotsial vazifasi va jamiyat hayotiga kirib borish uslubi bilan ajralib turadi.

Rejissyorning badiiy fikrlashi uning yagona o'y-fikri va uni amalga oshirishi orqali, oxir-oqibat uning badiiy ijodi mahsuli bo'lmish - badiiy yaxlit spektaklda ifodalanadi. Spektakl - rejissyorning ma'naviy-ruhiy-mazmunli fikrlarining materiallashgani, amalda namoyon bo'lishi, rejissyor to'plagan badiiy ma'lumotlarning mujassamlashgan manbai va zaxirasi hisoblanadi.

Masalan, badiiy fikrlash qobiliyatiga ega yoshlar teatri rejissori uchun ijodiy talqin quyidagi jihatlarida namoyon bo'lishi mumkin:

- spektakl janrini belgilash;
- personajlarga xarakter berish;
- sahna dekoratsiyasi yuzasidan rassom bilan fikr almashish;
- musiqiy yondashuvlar;
- ramziy yondashuvlar;
- zamonaviy-texnologik yondashuvlar;
- dramaturgik asos yuzasidan yondashuvlar;
- spektaklda temp va ritm jihatlariga e'tibor qaratish;
- chiroq va boshqa texnik jihatlardagi yondashuvlar va hokazo.

Rejissor adabiy asarni qo'liga olgandan so'ng, uning janriy xususiyatlari ustida bosh qotiradi. Masalan, komediya, sarguzasht, myuzikl... Xususan, komediya janri misolida oladigan bo'lsak, bir nechta jihatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Birinchi navbatda, asarni komediyani qaysi yo'nalishda sahnalashtirishni aniqlash kerak. Shu asosda asar ruhiyati yuzaga chiqadi, ularga xarakter beriladi hamda dekoratsiya va boshqa vositalarni tanlash imkoniyati yuzaga keladi.

Respublika yosh tomoshabinlar teatri repertuarida komediya janrida turli spektakllar sahnalashtirilgan.

Bugungi kunda Respublika yosh tomoshabinlar teatrida faoliyat yuritayotgan rejissorlar barmoq bilan sanoqli. Sababi, jamiyat, teatr va san'at mutasaddilari bolalar teatri rejissorlarini tarbiyalash jarayoniga befarqlik bilan qaramoqda. Endilikda raqobat maydonini yanada kengaytirish hamda zamonaviy fikrlaydigan yoshlar nafasini olib kirish teatr rejissurasi sohasida yangi, kutilmagan talqin va tendensiyalarni yuzaga chiqishi uchun xizmat qilishi mumkin.

Mazkur rejissyorlik izlanishlari Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida 1999 yili O.Salimov sahnalashtirgan "Boz masxaraboz" spektakli orqali ham gapirishimiz mumkin. O.Salimov rejissurasining o'ziga xos jihati, uning aksariyat spektakllarida jahon va o'zbek teatri san'atida qadimdan bizgacha yetib kelgan an'analar, jumladan, masxarabozlik o'yiniga xos bo'lgan xususiyatlar mavjudligida ko'rinadi. U o'z spektakllarida plastik harakatlar, turli raqslardan unumli foydalanadi, shuningdek, metafora, grotesk, allegoriyalarga o'rin beradi. U jo'ngina syujet asosida sahnada aql bovar qilmaydigan olamni vujudga keltira oladi. Sahnalashtirilgan har bir spektaklning muhiti "rejissyor tomonidan tasviriy, chiroq va plastik yechimi aniq va uzviy holda yaratiladi, unda real va assotsiativ, hayotiylik va shartlilik uyg'unlashib, spektaklning murakkab jihatini yuzaga keltiradi".

Bulardan tashqari, O.Salimov davrning o'zgarishlarini, dunyoda ro'y berayotgan yangiliklarni aniq his etib, ularga nisbatan o'z spektakllari orqali munosabat bildiradi, ularni aniq maqsadga birlashtira oladi. Shuning uchun ham uning spektakllarining har bir namoyishida yangi qirralarni payqash mumkin. Shuningdek, spektakllarda "obrazlarning tashqi ko'rinishi og'zaki aytilgan so'zlardan ko'ra ko'proq gapiradi. Ularda yangi badiiy tafakkur o'ziga xoslik va plastik tilning ta'sirchanligida ifodalanadi"⁴. [4]

Bu kabi o'ziga xos jihatlar "Boz masxaraboz" spektaklida yorqin ifodasini topgan. Unda Sharq va G'arb mamlakatlarining qadimgi teatr san'atidan meros qolgan masxarabozlik zamonaviy ko'rinishda o'z aksini topdi. O'z nomi bilan masxarabozlar tomoshasi bo'lgan mazkur spektakl so'zlardan holi, aktyorlarning plastik harakati, mimikasi, raqsi asosida sahnada ijro etiladi. Spektaklning barcha personajlari masxaraboz-qiziqchilardan iboratdir. Mazkur spektaklni sahnaga olib chiqishda, rejissyor o'zining avvalroq o'zbek maydon tomoshalariga xos jihatlar asosida sahnalashtirgan bir qancha spektakllaridan orttirgan tajribalari, sahna amaliyotiga tayandi hamda uni xorijiy teatrning shu yo'nalishdagi an'analari bilan boyitishga intildi.

Aslida ham masxarabozlik o'zbek xalq tomosha san'atining qadimiy ko'rinishlaridan biri. Akademik M.Rahmonov o'z tadqiqotlarida shunday keltiradi ijtimoiy past tabaqalarning o'ziga xos ellinlashgan, maydonga asoslangan teatri – "masxara" (yunonchadan "o masxara" - qiziqchilar) eramizning III asridan to yaqin davrlargacha mavjud bo'lgan⁵. [5]

Demak, u deyarli yigirma asrlik tarixga ega. "Masxara" teatri O'rta Osiyo hududiga kirib kelgan qadimgi yunon teatri sistemasi bilan shakllanib bordi. Masxarabozlar nafaqat odamlarning ko'nglini ko'tarish, balki ularga siyosiy va ijtimoiy holatni kulgi orqali ko'rsatish asosida tomoshalar qo'yar edi. Ular Yevropa teatri asosidagi zamonaviy o'zbek teatr san'ati shakllanishiga qadar mavjud bo'lgan hamda maydonlarda tomosha ko'rsatgan holda keng ommani o'ziga jalb qilgan. Shakllangan zamonaviy o'zbek teatri san'atida esa masxarabozlik o'z kuchi va ijtimoiy mavqeiini yo'qotib borgani barchaga ayon. Shu jihatdan rejissyor O.Salimovning "masxara" teatri an'analarini qaytarish va uning avvalgi mavqeiini tiklash borasidagi say-harakatlarini ta'kidlash lozim.

Uning "Boz masxaraboz" asari bir yo'nalishdagi kichik syujetdan iborat ssenariy, ijrochilarning badihago'yiligiga asoslanganligi bilan italyan "komediya del arte" unsurlarini yodga soladi. Ushbu tomosha ekssentrik komediya shakllarini o'zida namoyon etgan. Ekssentrik komediyaga xos bo'lgan jihatlar voqealarning kutilmagan va ko'pincha ishonib bo'lmaydigan yo'nalish bo'ylab, ko'pgina peripetiya syujetlari jo'rligida rivojlanib borishida ko'rinadi. U fars holatlari va buffonada ohangi bilan xarakterlanadi. Buffonada – komediyaning bir turi bo'lib, u ijrochining personaj tashqi xarakterli jihatlarini bo'rttirishga intilishi, grotesk va keskin mubolag'aga yondashishiga asoslanadi. O.Salimov tomoshasi ham buffonada shakllidagi yaqqol ko'zga tashlanadi. "Rejissyor "Boz masxaraboz"da aktyorlar ijrochiligiga tayanadi. Spektaklda so'z yo'q. Harakatlarning o'zi so'zlaydi"⁶[6]. Bunday tomoshada rejissyor uchun plastik harakatchan, badihago'ylik va muqallid san'atida yetuk bo'lgan ijrochilarni topish hamda spektaklga jalb qilish muhim. Chunki spektakl so'zsiz bo'lganidan keyin, aktyorlar xatti-harakati, mimikasi va nigohlari bilan fikrini tomoshabinga aniq yetkaza olishi kerak.

Masxarabozlik va pantomimaga asoslangan "Boz masxaraboz" spektakli to'rt etyuddan iborat. Birinchi etyud "Pufakchalar" deb nomlanib, rejissyor ushbu buffonadada kasbi tufayli "atrofdagilar uchun ko'rinmas odamlar" haqida so'z yuritadi. U monoetyud bo'lib, unda qatnashadigan masxarabozga rejissyor mahoratli aktyor Muhammadiso Abdulxairovni tanlagan. Dastlab atrofni tozalovchi masxaraboz – M.Abdulxairov pufakchalar yoyilib yotgan sahnaga supurgi va hokandoz ko'tarib chiqib keladi. Aktyor xuddi yosh bolalardek qo'lidagi supurgini goh skripka, goh dutorga aylantiradi, gohida esa uni boshqa masxarabozlardan hamda voqealar orasida paydo bo'ladigan kesatiqdan iborat g'oyibona kulgidan himoyalani uchun o'qotar qurol sifatida ishlatadi. O.Salimov ushbu personaj orqali jamiyatdagi "kichkina odamlar" ham boshqalar kabi insoniy his-tuyg'ular, orzularga egaligi, uning ustidan kulmaslik kerakligiga ishora qilgan. Bunda aktyor M.Abdulxairovning birgina detalni turli ko'rinishlarda mohirona ishlata olish, predmetni jonlantirish singari qobiliyatlari ko'zga tashlandi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-jild. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 291-b.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 245-b.
4. Yuldashev T. Masxarabozlari s Eski Juva. "O'zbekistan Airways", 1999.
5. Raxmanov M. O'zbekskiy teatr s drevneyshix vremen do 1917 goda. T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 311– 326 b.
6. Mahkamova M. Yoshlar va teatr // "Teatr" jurnali, 2005/3.
7. Hamitova Sunbula Bahodir qizi. (2024). Performance of national and foreign classical works on the stage of the Theater of Young Audiences.
8. Hamitova Sunbula Bahodir qizi. (2024). Yosh tomoshabinlar teatri sahnasida milliy va xorijiy klassik asarlarning sahnalashtirilishi.
9. Хамитова С. Б. Художественные и идеологические проблемы в репертуаре театра //Miasto Przeszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 88-91.
10. Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне "тутовое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).